

d.uyshokov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI
O'quv-uslubiy boshqarma
№ 244
«3» 07 2024y.



BUXGALTERIYA HISOBI

fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI
(SILLABUS)
(sirtqi)

- Bilim sohasi:** 400 000 - Biznes, boshqaruv va xuquq
- Ta'lim sohasi:** 410 000 - Biznes va boshqaruv
- Ta'lim yo'nalishi:** 60410100 - Buxgalteriya hisobi va audit
(farmoqlar bo'yicha)

Namangan-2024

Fan/modul' kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
BH15(6,7,8,9,10)30	2024-2025	5,6,7,8,9	30(5,5,6,7,7)
Fan/modul' turi	Ta'lim turi	Haftadagi dars soatlari	Jami yuklama
majburiy	O'zbek	4,6,6,6,6	(soat)
Fanning nomi	Auditoriya	Mustaqil	Jami yuklama
	mashg'ulotlari	Ta'lim	(soat)
	(soat)	(soat)	
Buxgalteriya hisobi	112(56/56)	788	900
	<u>3-semestr 16(8m/8a)</u>	<u>5-semestr 134</u>	<u>5-semestr 150</u>
	<u>6-semestr 24(12m/12a)</u>	<u>6-semestr 126</u>	<u>6-semestr 150</u>
	<u>7-semestr 24(12m/12a)</u>	<u>7-semestr 156</u>	<u>7-semestr 180</u>
	<u>8-semestr 24(12m/12a)</u>	<u>8-semestr 186</u>	<u>8-semestr 210</u>
	<u>9-semestr 24(12m/12a)</u>	<u>9-semestr 186</u>	<u>9-semestr 210</u>

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda buxgalteriya hisobining ob'ektlari (xo'jalik mablag'lari va ularning kelib chiqish manbalari, ularning xo'jalik yuritish jarayonidagi xarakati, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashirish va umumlashirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy, moliyaviy faoliyati tug'risidagi to'liq ishonarli ma'lumotlarni shakllantirish hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida taqdim etish, moliyaviy va boshqaruv hisobini tashkil qilish, uning normativ xuquqiy asoslari) bo'yicha yo'nalishiga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish hisoblanadi.

Fanning vazifasi - talabalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda mablag'lar, ularning tashkil topish manbalarining xarakatini tug'ri ettirish, hisobotlarni tuzish, moliyaviy hisobotma'lumotlarini shaffofligini ta'minlash, boshqa sub'ektlar bilan hisob siyosati to'g'ri tashkil etilishini qonunlar, qarorlar va boshqa normativ hujjatlar o'rganishlari va o'zlashtirishlari, bilim, ko'nikma va malakalari shakllanishi hisoblanadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

MOLIYAVIY HISOB VA HISOBOT (5-6-semestr uchun).

***1-mavzu. Moliyaviy hisob va hisobotning mohiyati.**

Moliyaviy hisobni yuritish va hisobotni tuzishni tashkil qilish. Moliyaviy hisob va hisobotni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar. Hisob siyosatining mohiyati, mazmuni va ahamiyati. Hisob siyosatini ishlab chiqish va foydalanish tartibi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda hisob siyosatining tug'an o'rini.

Buxgalteriyada ishini tashkil qilish. Buxgalteriya hisobiga raxbarlik qilish. Buxgalteriya hisobi xizmati raxbarining majburiyat va huquqlari. Xo'jalik sub'ektlarida bosh buxgalterning vazifalari, huquqlari va majburiyatlari.

2-mavzu. Asosiy vositalar hisobi.

Asosiy vositalar hisobini tashkil qilish hamda uning vazifalari. Asosiy vositalarni turkumlash.

Aktiv tan olinganida uni baholash. Asosiy vositalarni xo'jalik sub'ekti balansiga kirim qilish yo'llari. Kapital kuyilmalarni hisobga olish. Asosiy vositalar xarakatini hujjatlashirish. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash tartibi va usullari. Asosiy vositalarni ta'mirlash operatsiyalarini hisobga olish. Asosiy vositalarni qayta baholash muomalalarini hisobda aks ettirish. Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi.

Ijara munosabatlarini tartibga solish. Ijara muomalalarining ob'ekti, predmeti va sub'ektlari. Asosiy vositalarni ijaraga olish va ijaraga berish hisobi.

***3-mavzu. Nomoddiy aktivlar hisobi.**

Nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etish. Nomoddiy aktivlarni turkumlash va baholash. Nomoddiy aktivlarni kirim qilish va xarakatini hujjatlashirish. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash tartibi va usullari. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish tartibi. Biznes birlashuvining qismi sifatida sotib olish. Gudvill hisobining xususiyatlari.

4-mavzu. Investitsiyalar hisobi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashirish sharoitida investitsiyalarning roli va bu sohada hisobning vazifalari. Investitsiyalar hisobini tashkil qilish. Investitsiyalarni turkumlash. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish muomalalarini hisobda aks ettirish. Investitsiyalarni sotib olishdan va foydalanishda moliyaviy natijalarni oldindan hamda keyin aniqlash hisobi. Bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda. Investitsiyalarda katnashish usullari. Qaram tadbirkorlik sub'ektlaridagi va qo'shma korxonalaridagi investitsiyalar. Qisqa muddatli investitsiyalar (qimmatli qog'ozlarni kategoriyalari bo'yicha analitik hisobini tashkil etish).

5-mavzu. Materiallar hisobi.

Materialning xo'jalik sub'ektlari faoliyatida tug'an o'rni va bu sohada hisobning vazifalari. Materiallarni turkumlash va baholash. Materiallarni kirim qilish yo'llari va ular xarakatini hujjatlashirish. Materiallarni omborda va buxgalteriyada hisobga olish. Materiallarni domalab baholash, o'rtacha bahoda, FIFO va boshqa usullarda baholab sarflashini hisobda aks ettirish. TMZlar sof sotish qiymati. Materiallar dan foydalanishni nazorat qilish va inventarizatsiyadan o'tkazish.

Xo'jalik jixozlari va inventarlari hisobining xususiyatlari. Qayta ishlashga berilgan xom ashyo bo'yicha operatsiyalarni hisobda aks ettirish tartibi. Idishlar hisobining xususiyatlari.

6-mavzu. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar va ularning sotilishini hisobga olish.

Tayyor mahsulot haqida tushuncha va uning turkumlanishi. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni baholash. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar sotilishini hujjatlashirish. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni turli shartlar bilan realizatsiya qilishni hisobda aks ettirish. Konsignatsiya muomalalarini hisobda aks ettirish. Tayyor mahsulot (tovar)lar qaytishini hisobga olish.

7-mavzu. Pul mablag'lari va hisob kitoblar hisobi.

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobining vazifalari.

Pul mablag'larining ichki nazorati. Hisob kitoblar tizimida bank bilan kelishuv. Kassa muomalalarining hisobini yuritish tartibi. Pul mablag'lari bo'yicha kassa, hisob-kitob, valyuta schyoti va bankdagi boshqa schyotlarni tashkil qilish. Bank muassasalaridagi schyotlarni yuritish hisobi. Bankdagi maxsus schyotlar, akkreditiv, chek daftarlari va boshqa maxsus schyotlar bo'yicha hisoblashlar. Pul ekvivalentlari, yul'dagi pullar hisobi, frank va cheklangan pul mablag'lari, savdo va nosavdo debitorlik qarzlari.

8-mavzu. Mehnat va ish haqini hisobga olish.

Mehnat va ish haqi hisobini tashkil etish hamda uning vazifalari. Mehnat munosabatlarini tartibga solish. Korxonaning shaxsiy tarkibi, Mehnatga haq to'lash tizimlari, shakllari va turlari. Mehnat va ish haqini dastlabki hujjatlarda rasmiylashtirish hamda umumlashirish.

Jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibi. Ish haqidam ushlab qolinadigan va chegiriладigan

summalar hisobi. Vaqtinchalik Mehmatga layoqatsizlik nafaqasini hisoblash va to'lash. Mehnat ta'tili rezervlari va to'lovlari hisobi. Yagona ijtimoiy to'lovni hisoblash tartibi. Hisobdor shaxslar bilan hisoblashlar hisobi.

Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvараqlarini ochilishi hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallar hisobi.

9-mavzu. Majburiyatlar hisobi.

Majburiyatlar tushunchasi va ularni baholash. Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar, ajratilgan bo'linmalar, shuba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schyotlar, kechiktirilgan majburiyatlarini hisobga olish, olingan bo'naklarni hisobga olish, byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish, sug'urta va davlatning maqsadli jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish, ta'sischiarga bo'lgan qarzlarni hisobga olish, kredit va qarzlarni hisobga olish. Qisqa va uzoq muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha majburiyatlar hisobi. Turli kreditorlar bo'yicha majburiyatlarini hisobga olish.

10-mavzu. Xususiy kapital hisobi.

Xususiy kapital hisobini tashkil etish va uning vazifalari. Xususiy kapital tarkibi. Turli mulkchilik shakllarida ustav kapitalini shakllantirish va uning o'zgarishini hisobga olish. Xo'shilgan kapital hisobi.

Rezerv kapitalini shakllantirish va ishlatisini hisobga olish. Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi. Maqsadli tushumlar hisobi. Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervini tashkil qilish hamda foydalanish hisobi.

11-mavzu. Moliyaviy natijalar hisobi

Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari. Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar hisobi. Daromadlarni tan olish va baholash. Asosiy faoliyatining boshqa daromadlarini hisobga olish. Davr xarajatlari tarkibi va hisobi. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarni hisobga aks ettirish. Favqulodda foyda va zararlar hisobi. Soliq to'lagunga qadar foydani aniqlash va soliqqa tortish. Sof foyda va uning ishlatisini hisobga aks ettirish.

12-mavzu. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish.

Moliyaviy hisobot va uning tarkibi. Moliyaviy hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko'rish tartibi (inventarizatsiya). Moliyaviy hisobot axborotidan foydalanuvchilar. Oralik moliyaviy hisobotlar.

Buxgalteriya balans va uni tuzish tartibi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot va uni tuzish usullari. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar, ilovalar va izoxlar.

Soliq va statistik hisobotlar tarkibi. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari va unga auditorlarning xulosasini zaruriyligi.

BOSHQARUV HISOBINI (7-semestr uchun).

1-mavzu. Boshqaruv hisobini tashkil etish.

Boshqaruv hisobining paydo bo'lishi va tarixiy rivojlanishi. Boshqaruv hisobi fanining predmeti, boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va boshqaruv hisobining usullari. Boshqaruv hisobining maqsadi va vazifalari. Boshqaruv hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari. Boshqaruv hisobi ma'lumotlarining tavsifi va ularni saqlash tartibi. Boshqaruv hisobini amalga oshiruvchi buxgalter-tahlilchining funktsiyalari. Boshqaruv hisobini tashkil etishning korxonada buxgalteriya hisobini yuritish siyosatiga mos kelishi.

*2-mavzu. Xarajatlarni turkumlash va baholash ularning hisobi.

Xarajatlar haqida tushuncha. Xarajatlar hisobi usullarining evolyusiyasi. Xarajatlarni turli xil belgilarga ko'ra turkumlanishi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olishda texnologiyani ta'siri. Texnologik jarayonga qarab ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olish. Ishlab chiqarish xarajatlari asosiy, yordamchi ishlab chiqarishlar va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlar bo'yicha hisobga olishni tashkil qilish.

Boshqaruv hisobi schyotlar rejasini.

Xarajatlarni vazifalarini aniqlash uchun umumiy qoida (printsip)lar.

Xarajatlarni baholash usullarini:

- muhandislik usullari;
- buxgalteriya schyotlarini tekshirish;
- grafik usul yoki yoyilish diagrammasi;
- eng ko'p va eng kam ahamiyatli usullar.

3-mavzu. Mahsulot tannaxrini hisobga olish usullari.

Kalkulyasiya qilishning oddiy usuli. Bu usul tugallanmagan ishlab chiqarish bo'limagan yoki oz miqdorda bo'lgan, oddiy ishlab chiqarishga mansub bo'lgan korxonalarda qo'llaniladi. Ishlab chiqarishga taalluqli xarajatlar mahsulot turlari o'rtasida mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Jarayonli kalkulyasiyaga tavsif berish. Mahsulot tannaxrini tarkibi va turlari. Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannaxrini kalkulyasiya qilishning ahamiyati. Kalkulyasiyaning tamoyillari, ob'ekti va usullari

Buyurtmalar bo'yicha kalkulyasiyalashga asosiy yondashuv. Haqiqiy va me'yoriy kalkulyasiyalash. Tugallanmagan kontraktlar bo'yicha foydani aniqlash. Tugallangan kontrakt bo'yicha tushuntiriladigan foyda. Oralik foydani hisoblash.

Normativ usul me'yordan chetga chiqishlarni operativ (tezkor) boshqarishdir. Normativ usul tannaxr shakllanishini kompleks boshqarish tizimidir. SHuning uchun uni qayta ishlash va joriy qilishda birlashma boshqaruvning hamma xizmatlari ishtirok etishi lozim.

*4-mavzu. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish. Sotiladigan mahsulot (tovarlar) assortimentini rejalashtirish. Bahoni shakllantirish bo'yicha karor kabul qilish. Korxonada mahsulotni tarkibini chegaralovchi omillar asosida aniqlash. Biznes tarkibini uzgartirish (restrukturizatsiya) qilish bo'yicha karor kabul qilish. Boshqaruv hisobini tashkil etishning variantlari: avtonom va integratsiyalashgan. Boshqaruv va moliyaviy hisob schyotlar rejalarida xo'jalik muomalalarini kayd etish tizimlari. Sanoat korxonalarida integratsiyalashgan usulni qo'llash. Savdo korxonalarida integratsiyalashgan usulni qo'llashning xususiyatlari.

5-mavzu. Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish.

Boshqaruv hisobi tizimida rejalashtirish. Ishlab chiqarish va savdo korxonalarining Bosh byudjeti. Xo'jalik faoliyatini tahlil va nazorat qilish. Javobgarlik markazlari va xarajatlarning kelib chiqish joylarini nazorat qilish.

6-mavzu. Transfert bahoni shakllantirish.

Transfert bahosining turlari va shakllantirish tamoyillari: bozor narxi va xarajatlarni miqdori bo'yicha baholash, uning afzalliklari va kamchiliklari, transfert baholari o'rnatish usullari. Sanoat, savdo va bank tizimida transfert bahoni shakllantirish.

7-mavzu. Korxonaning segmentar hisoboti.

Segmentar hisobotning mohiyati, ahamiyati va uni tashkil etish qoidalari. Tashki foydalanuvchilar uchun segmentar hisobotni tuzish qoidalari. Ichki segmentar hisobotni tuzilishi shartlari va tamoyillari.

Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi sifatida. Moliyaviy va boshqaruv hisobida biznes samadorligini baholashga yondoshuvlar. Javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning moliyaviy va nomoliyaviy mezonlari.

8-mavzu. O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishning rivojlanish yunalishlari.

Buxgalteriya hisobining respublikamizda rivojlanish yunalishlari: buxgalteriya hisobining moliyaviy hisob va boshqaruv hisobiga ajratish, boshqaruv hisobini tarmoq xususiyatini hisobga olgan holda tashkil qilish, boshqaruv uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga bo'lgan talab va taklifi nirganish va tahlil qilish, tarmoq xususiyatini xar tomonlama urganish asosida - xarajatlarni

vujudga kelish markazlari va mas'uliyat markazlarini shakllantirish, boshqaruv hisobini qulay tashkil qilish maqsadida xarajatlarni korxon bo'yicha uning bo'limlari, vujudga kelish markazlari, mas'uliyat markazlari bo'yicha guruxlash va boshqalar.

TARMOQLAR VA SOHALARDA BUXGALTERIYA

HISOB (8-semestr uchun).

1-mavzu. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish

Qurilish tashkilotlarining buxgalteriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari. Qurilish tashkilotlari hisob siyosatining xususiyatlari.

*2-mavzu. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi.

Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarning tavsifi va baholanishi. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar holati va xarakatining hisobi. Qurilish mashinalari va mexanizmlari ish faoliyatining hisobi. Qurilish mashinalari va mexanizmlari ekspluatatsiya qilish xarajatlarning hisobi. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblash usullarini qo'llash xususiyatlari.

*3-mavzu. Qurilish tashkilotlarida materiallar hisobi.

Qurilish tashkilotlarida ishlatiladigan materiallarning tasnifi, tavsifi va baholanishi. Qurilish tashkilotlarida materiallar xarajati hujjatlashtirish va ularning ombor hisobi. Qo'shimcha sarflangan materiallar to'g'risida hisobotni tuzish va unga ishlov berish tartibi. Qurilish tashkilotlarida materiallarning sintetik va analitik hisobi. Qurilish tashkilotlarida materiallar inventarizatsiyasi xususiyatlari va uni natijalarining hisobi.

*4-mavzu. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar hisobi. Qurilish tashkilotlarida Mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari. Qurilish tashkilotlarida Mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarning sintetik va analitik hisobi. Qurilish tashkilotlarida Mehnatga haq to'lash xarajatlarning taqsimoti.

*5-mavzu. Qurilish tashkilotlarida ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx

kalkulyatsiyasining hisobi.

Qurilish tashkilotlarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlarning hisobi. Qurilish tashkilotlarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarning hisobi. Qurilish tashkilotlarida umumishlab chiqarish xarajatlarning hisobi va ularning taqsimoti. Qurilish ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyatsiya qilish usullari.

*6-mavzu. Qurilish ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarning hisobi.

Qurilish ishlab chiqarishdan olingan daromadlarning hisobi. Qurilish ishlab chiqarish buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarning hisobi. Qurilish ishlab chiqarishdan olingan daromadlar bilan hisob-kitoblarning hisobi. Qurilish ishlab chiqarishdan olingan daromadlar bilan hisob-kitoblarning hisobi.

*7-mavzu. Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar, soliqlar va majburiy

to'lovlarning hisobi. Qurilish tashkilotlarida hisobot.

Qurilish tashkilotlarida yakuniy moliyaviy natijalarning hisobi. Qurilish tashkilotlarida Soliqqa tortishning xususiyatlari va ularning hisobi. Qurilish tashkilotlarida majburiy ajratmalar, yigimlar va ushlanmalarining hisobi. Qurilish tashkilotlarida hisobotlarning turlari va ularni taqdim etish muddatlari. Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish xususiyatlari.

8-mavzu. Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish.

Qishloq xo'jalik korxonalarining buxgalteriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Qishloq xo'jalik korxonalarida hisob siyosatining xarakatini xususiyatlari.

*9-mavzu. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar hisobi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar xarakatini hujjatlashtirish va hisobi. Qishloq xo'jalik

korxonalarida asosiy podani shakllantirish va ular kirimining hisobi. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashning xususiyatlari va hisobi.

*10-mavzu. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari hisobi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarning tasnifi, tavsifi va baholanishi. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari xarakatini hujjatlashtirish va ularning ombor hisobi. Ishlab chiqarish zaxiralarning sintetik hisobi. Ustirishdagi va bokuvdagi mollarning hisobi.

*11-mavzu. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarning tasnifi, tarkibi va tavsifi. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot kirimining dastlabki hisobi. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarning sintetik va analitik hisobi. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari.

*12-mavzu. Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.

Chorvachilik xarajatlarning tasnifi, tarkibi va tavsifi. Chorvachilik xarajatlari va mahsulot kirimining dastlabki hisobi. Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarning sintetik va analitik hisobi. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari.

*13-mavzu. Qishloq xo'jaligi korxonalarida yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlarning hisobi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarning hisobi va ularning taqsimlanishi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarning hisobi va ularning taqsimlanishi.

14-mavzu. Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy natijalar, soliqlar, majburiy ajratmalar va to'lovlarning hisobi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari va ularning hisobi. Qishloq xo'jalik korxonalarida soliqqa tortish bo'yicha davlat siyosati va soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarning hisobi. Qishloq xo'jalik korxonalarida majburiy ajratmalar va to'lovlarning hisobi.

*15-mavzu. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish xususiyatlari.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy hisobotning turlari, tarkibi va uni taqdim etish muddatlari. Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya balansini tuzguzish xususiyatlari. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni tuzguzish xususiyatlari.

16-mavzu. Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish

Avtotransport korxonalarining buxgalteriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Avtotransport korxonalarida hisob siyosatining xususiyatlari. Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari.

*17-mavzu. Avtotransport vositalari va ular ish faoliyatining hisobi.

Avtotransport vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi. Avtotransport vositalari holati va xarakatining hisobi. Avtotransport vositalari ish faoliyati ko'rsatkichlarining hisobi.

*18-mavzu. Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarning hisobi

Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarning hisobini tashkil qilish asoslari. Avtomobil yokilgilarining hisobi. Avtomobillar uchun ehtiyot qismlarning hisobi. Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari inventarizatsiyasining xususiyatlari.

*19-mavzu. Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va

bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmatlar) tannarxini kalkulyatsiya qilish

Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarning tasnifi va tavsifi. Ekligi sarfining hisobi. Ehtiyot qismlar sarfining hisobi. Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar bo'yicha xarajatlarning hisobi. Amortizatsiya xarajatlarning hisobi. Avtotransport

korxonalarida boshqa ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va taqsimoti. Aviotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannaxrini kalkulyasiya qilish tartibi.

***20-mavzu. Aviotransport korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarining hisobi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirishning xususiyatlari.**

Aviotransport korxonalarida asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarining hisobi. Aviotransport korxonalarida umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalarining hisobi. Aviotransport korxonalarida sof foyda va uni ishlatilishining hisobi. Aviotransport korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotda aks ettirishning xususiyatlari.

***21-mavzu. Soliqlar, majburiy ajratmalar va to'lovlarning hisobi.**

Aviotransport korxonalarida soliqlarning hisobi. QQS hisob-kitobi va hisobi. Foyda soligi hisob-kitobi va uning hisobi. Yagona Soliq to'lovining hisob-kitobi va hisobi. Aviotransport korxonalarida majburiy ajratmalar, yigimlar va ushlanmalarining hisobi.

22-mavzu. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari.

Savdo korxonalarining buxgalteriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari va uni tashkil qilishning xususiyatlari.

***23-mavzu. Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining hisobi.**

Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining mohiyati va ularni amalga oshirish shartlari. Tovar-moddiy boyliklarni sotib olish qiymati (tannaxri) va sotish baholarini aniqlash tartibi. Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining rasmiylashtirilishi. Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarning ombor hisobini yuritish usullari. Ombor hisobining partiyali va navli usullari. Moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari, ularni tuzish, taqdim etish, tekshirish va tasdiqlash. Ulgurji savdo korxonalarida tovar kiritimining hisobi. Tovarlar sotilishi va boshqa chiqimlarining hisobi. Ulgurji savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasi va uni natijalarining hisobi.

***24-mavzu. Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining hisobi**

Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalari hisobini tashkil qilishning xususiyatlari. Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish. Chakana savdo korxonalarida moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarini tuzish, taqdim etish va ularga buxgalteriya ishlovini berish. Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining buxgalteriya hisobi. Chakana savdo korxonalarida idishlar hisobining xususiyatlari. Tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasining xususiyatlari va uni natijalarini hisobi.

***25-mavzu. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalari hisobi.**

Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalari hisobini tashkil qilishning xususiyatlari. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish va ular bo'yicha hisobotni tuzish. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarining buxgalteriya hisobi.

***26-mavzu. Savdo korxonalarida daromadlar, xarajatlar va yakuniy moliyaviy natijalar hisobi.**

Savdo korxonalarida daromadlar hisobi. Savdo korxonalarida xarajatlar hisobi. Sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamalarining hisob-kitobi. Savdo korxonalarida yakuniy moliyaviy natijalarining hisobi.

27-mavzu. Savdo korxonalarida soliq to'lovlari, majburiy ajratmalar va ushlanmalar hisobi.

Savdo korxonalarida Soliq to'lovlarning hisobi. Yagona Soliq to'lovining hisobi. AYOQSH larida yoqilg'i iste'moli uchun Soliq va yagona Soliq to'lovi hisobining xususiyatlari. Yalpi daromad soligi hisob-kitobi ning xususiyatlari. Savdo korxonalarida majburiy ajratmalar va

ushlanmalarining hisobi.

BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTLARI (9-semestr uchun).

***1-mavzu. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari faniga kirish.**

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda buxgalteriya hisobini ishlab chiqarish bosqichlari. Moliyaviy hisobot tayyorlash va taqdim etishning kontseptual asoslari. Kontseptual asosning maqsadi va maqomi. Moliyaviy hisobot tarkibiy qismlari. Buxgalteriya hisobi va hisobotning tamoyillari. Moliyaviy hisobotlar tarkibiy qismlarini aks ettirish va baholash. Buxgalteriya hisobi milliy standartlarining tarkibi. Buxgalteriya hisobotni tayyorlashning kontseptual yondoshuvlari. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni va uning ahamiyati.

2-mavzu. Hisob siyosati va moliyaviy hisobot.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar. Hisob siyosati to'g'risida tushuncha. Hisob siyosatining shakllari to'g'risida tushuncha va mohiyati. Moliyaviy hisobot tamoyillari. Moliyaviy hisobotlarning asosiy identifikatsion rekvizitlari. Hisobot davri va hisobot muddati. Moliyaviy hisobot shakllari. Asosiy xo'jalik faoliyatidan daromadlar tushunchasi. Daromadni hisoblash tartibi. Tovarlar realizatsiyasi, xizmat ko'rsatish, oldi-sotdi kelishuvi daromadlarining mohiyati. Fozilar, royalti va dividendlar tushunchasi. Daromadlarni buxgalteriya hisobi shetlarida aks ettirilishi.

3-mavzu. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot. Tovar moddiy zahiralari. Moliyaviy natijalar to'g'risida tushuncha va ularning tarkibi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladigan ko'rsatkichlar realizatsiyadan tushgan sof tushum, realizatsiyadan olingan yalpi moliyaviy natija, asosiy faoliyatdan olingan boshqa operatsion daromadlar, asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar va xarajatlar umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natija, favqulodda foyda va zararlar, daromad solig'i to'langunga qadar bo'lgan umumiy moliyaviy natija, hisobot davrining sof foydasi. Tovar moddiy zahiralarni baholanishi va tannaxri. TMZ qiymatini baholash usullari to'g'risida tushuncha. Realizatsiyaning sof qiymati. Daromad va xarajatlarni tan olinishi.

4-mavzu. Asosiy vositalar. Ijara hisobi. Nomoddiy aktivlar.

Asosiy vositalarni turkumlashi va baholanishi. Asosiy asosiy vositalarga eskirish (amortizatsiya) hisoblash usullari. Asosiy vositalarning qayta baholanishi. Asosiy vositalarni sotilishi va ularning moliyaviy natijalarini aniqlash tartibi hamda buxgalteriya shetlarida aks ettirilishi. Ijara operatsiyalarining turlari va mohiyati. Operativ lizing hisobi. Moliyaviy lizing hisobining ahamiyati. Ijara xakini ijara oluvchida hisobi. Ijaraga oluchi tashkilotda hisob ishlarini yuritilishi. Nomoddiy aktivlar to'g'risida tushuncha va ularning mohiyati. Nomoddiy aktivlarga eskirish (amortizatsiya) hisoblash tartibi. Nomoddiy aktivlardan foydalanish hisobi.

***5-mavzu. Umumlashgan moliyaviy hisobotlar va sho'ba xo'jalik jamiyatlarida sarmoyalarni hisobga olish. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot.**

Umumlashgan hisobotlar to'g'risida tushuncha va ularning mohiyati. Umumlashgan hisobotlarni tuzish usullari va taqdim qilish tartibi. Sho'ba xo'jalik jamiyatlarida sarmoyalar hisobi va umumlashgan hisobot tuzish tartibi. Bosh (asosiy) jamiyatda moliyaviy hisobotni tuzish tartibi. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotning foydalligi va mohiyati. Pul mablaglari va pul ekvivalentlari. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladigan ma'lumotlar. Operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyatlar. Operatsion faoliyatdagi pul oqimlari bo'yicha hisobot. Operatsion, moliyaviy va investitsion faoliyatdagi pul oqimlari bo'yicha hisobot tushunchalari.

***6-mavzu. Davlat subsidiyalari hisobga olish va davlat tomonidan berilgan yordamni yoritish. Tajriba konstruktortlik va ilmiy tadqiqot ishlanmalari xarajatlari.**

Davlat subsidiyalari, davlat yordami, daromadga aloqador subsidiyalar, qaytarib berilmaydigan subsidiyalar va ularni hisobga olish. Davlat subsidiyalarning buxgalteriya hisobi

uslubiyati. Davlat moliyaviy subsidiyalarning mohiyati. Ilmiy tadqiqot ishlari, tajriba-konstruktorlik ishlariga to'g'risida tushuncha. Ilmiy tadqiqot ishlari, tajriba-konstruktorlik ishlarga kiritilgan xarajatlar tarkibi va ularni tan olinishi. Tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga qilingan xarajatlarning amortizatsiyasi va ularning buxgalteriyasi hisobi.

***7-mavzu. Moliyaviy sarmoyalar hisobi. Buxgalteriya balansini tuzish sanasidan keyin xo'jalik faoliyatida ro'y beradigan hodisalar va kutilmagan holatlar.**

Moliyaviy sarmoyalar va ularning turkumlanishi. Sarmoyalarning balans qiymati va baholanishi. Moliyaviy sarmoyalarni sotish va o'kazish tartibi, hamda ushbu jarayonlardan olinadigan moliyaviy natijalarni hisobga olish. Kutilmagan holat va buxgalteriya balansini tuzilganidan keyin ro'y beradigan xo'jalik faoliyatini hodisasi to'g'risida tushuncha. Kutilmagan zararlari va foydalarning hisobi. Kutilmagan holatlarni baholash. Buxgalteriya balansini tuzilgan sanadan keyin ro'y beradigan xo'jalik faoliyatini hodisalarini bo'yicha tuzatish ishlari.

8-mavzu. Kapital qurilishda ijara shartnomasi. Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish.

Qurilish pudrati shartnomasi, narxi qayd qilingan qurilish pudrati shartnomasi, kelishilgan narxlardagi qurilish pudrati shartnomasi to'g'risida tushuncha. Qurilish pudrati shartnomalari bo'yicha daromadlar va xarajatlarni tan olish, hamda ularning hisobini yuritish tartibi. Inventarizatsiyaning mohiyati va vazifalari. Inventarizatsiyani o'tkazishning umumiy qoidalarini. Uzoq muddatli va joriy aktivlarni inventarizatsiyadan o'tkazish. Pul mablag'larini inventarizatsiya qilish xususiyatlari. Inventarizatsiya yakuni bo'yicha taqqoslash vedomostlarini tuzish va uning natijalarini rasmiylashtirish tartibi.

9-mavzu. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarida hisobni yuritish va hisobot tuzish tartibi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schetlar rejasini. Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarining hisobi.

Kichik korxonalar to'g'risida tushuncha va ularning ahamiyati. Hisob yuritish ishlarining bosqichlari: ma'lumotlarni ro'yxatga olish va boshlang'ich hujjatlarda rasmiylashtirilishi. Kichik biznes sub'ektlarida hisob yuritish moliyaviy hisobot tuzish tartibi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini schetlar rejasining tarkibi. Uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital (mulk) moliyaviy natijalarning tarkib topishi va ularning foydalanishi bo'yicha to'g'risida tushuncha va ularning hisobi. Balansdan tashqari schetlarning mohiyati. Aktiv, passiv, kontr-aktiv, kontr-passiv, tranzit schetlarning mohiyati. Chet el valyutasida ifodalangan aktivlarni hisobga olish xususiyatlari. Chet el valyutasida ifodalangan majburiyatlarini hisobga olish. Moliyaviy hisobotlarda kurs farqlarini aks ettirish tartibi.

10-mavzu. Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish. Korxonalar qo'shib yuborish tadbirlari va ularning ahamiyati va amalga oshirish bosqichlari.

Qayta tashkil etishni amalga oshirish shakllari. Qayta tashkil etish natijasini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish xususiyatlari. Kvalifikatsiyalangan aktivlar bo'yicha xarajatlari. Qarzlari bo'yicha xarajatlarning tasnifi. Qarzlari bo'yicha xarajatlari hisobining tartibi. Qarzlari bo'yicha xarajatlarning tan olinishi. Kapitalizatsiya qilish uchun ruxsat etilgan qarzlari bo'yicha xarajatlari. Kvalifikatsiyalangan aktiv balans qiymatining uning joriy qiymatidan oshib ketishi.

«Бухгалтерия хисоби» фанidan ma'ruza mashg'ulotlarning mavzulari va soatlari bo'yicha taqsimlanishi: (5-semestr uchun)

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	Asosiy vositalar hisobi.	2

2	Investitsiyalar hisobi.	2
3	Materiallar hisobi.	2
4	Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar va ularning sotilishini hisobga olish.	2
JAMI		8

(6-semestr uchun)		
№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	Pul mablag'lari va hisob kitoblar hisobi.	2
2	Mehnat va ish haqini hisobga olish.	2
3	Majburiyatlar hisobi.	2
4	Xususiy kapital hisobi.	2
5	Moliyaviy natijalar hisobi.	2
6	Hisobotlarni tuzish va taqdim etish.	2
JAMI		12

(7-semestr uchun)		
№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	Boshqaruv hisobini tashkil etish.	2
2	Mahsulot tannaxmini hisobga olish usullari	2
3	Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish	2
4	Transfert bahoni shakllantirish.	2
5	Korxonaning segmentar hisoboti.	2
6	O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishning rivojlanish yunalishlari.	2
JAMI		12

(8-semestr uchun)		
№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish.	2
